

XITOYNING MARKAZIY OSIYODAGI “SOFT POWER” SIYOSATI

Rahmatullayev Shohruh

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Xitoy Markaziy Osiyo bilan eng uzun chegaraga ega bo'lgan yirik qo'shni davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu mintaqa, Xitoyning “Bir makon, bir yo'l” tashabbusida muhim rol o'ynaydi. Xitoyning Markaziy Osiyodagi 3 ta davlat bilan bevosita chegaradosh ekanligi, uning mintaqaga bo'lgan doimiy qiziqishini oshiradi. Shu nuqtai nazardan so'nggi 20 yildan ortiq vaqt mobaynida Xitoyning Markaziy Osiyo mintaqasiga turli yo'nalishlar bo'yicha kiritgan sarmoyalari kata qiziqish bilan qarshi olindi. Darhaqiqat, Xitoyning Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari bilan bevosita chegaraga egaligi, Xitoyning bu mamlakatlar har sohada faol hamkorlik tendensiyalari kuzatildi va hali-hanuzgacha ta'siri yuqoriligicha qolmoqda. Bundan tashqari Markaziy Osiyoning markazida joylashgan, shuningdek, Xitoy bilan chegaraga ega bo'lmagan O'zbekistonning iqtisodiy yo'nalishidagi asosiy hamkori Xitoy hisoblanadi. Buni esa joriy yildagi statistikada, Xitoyning O'zbek sanoatiga, ya'ni O'zbekiston importidagi mamlakatlar qatorida eng ko'p sarmoya kiritgan va eksport bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgani yorqin misol bo'la oladi. Bundan tashqari, yana bir bevosita chegaraga ega bo'lmagan davlat – Turkmaniston bilan ham o'zaro manfaatli savdo aloqalari olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Xitoyning Markaziy Osiyoga qaratilgan siyosati qolgan yirik kuch markazlariga nisbatan istiqbolli va dozarb ahamiyat kasb etishi mumkin. Ushbu maqolada Xitoyning Markaziy Osiyodagi “soft power” yondashuvlari SWOT tahlili asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: “OBOR”, “soft power”, “hard power”, Konfutsiy institutlari, “Madaniy diplomatiya”, Xitoy-Markaziy Osiyo hamkorlik forumi, madaniy ko'rgazmalar, Xitoylashtirish (latent), “qarz-tuzoq diplomatiyasi”, Xitoy migratsiyasi

АННОТАЦИЯ

Китай является одной из крупнейших соседних стран с самой протяженной границей со Средней Азией. Этот регион играет важную роль в инициативе Китая «Одно пространство, один путь». Тот факт, что Китай имеет прямую границу с 3 странами Центральной Азии, увеличивает его постоянный интерес к региону. С этой точки зрения за последние 20 лет с большим интересом были встречены инвестиции Китая в центральноазиатский регион по различным направлениям. На самом деле

Китай имеет непосредственную границу со странами Казахстана, Кыргызстана и Таджикистана, наблюдаются тенденции активного сотрудничества Китая с этими странами во всех сферах, и его влияние по-прежнему велико. Кроме того, Китай является основным экономическим партнером Узбекистана, расположенного в центре Центральной Азии и не имеющего границы с Китаем. Ярким примером этого является то, что в статистике этого года Китай сделал больше всего инвестиций в узбекскую промышленность, то есть среди стран-импортеров Узбекистана, и зафиксировал самый высокий показатель экспорта. Кроме того, существуют взаимовыгодные торговые отношения с другой страной, не имеющей прямой границы – Туркменистаном. С этой точки зрения политика Китая в отношении Центральной Азии может быть перспективной и значимой по сравнению с остальными крупными центрами силы. В этой статье освещаются подходы Китая к «мягкой силе» в Центральной Азии на основе SWOT-анализа.

Ключевые слова: «ОПОП», «мягкая сила», «жесткая сила», Институты Конфуция, «Культурная дипломатия», Форум сотрудничества Китая и Центральной Азии, культурные выставки, китаизация (латентная), «дипломатия долговой ловушки», китайская миграция.

KIRISH

“Soft power” - bu majburlovchi xarakterga ega bo‘lgan "hard power" dan farqli o‘laroq, ixtiyoriy ishtirok etish, uning modelini yoqtirish va jozibadorlik asosida istalgan natijalarni olish qobiliyatini nazarda tutadi.

Bu atamani kiritgan amerikalik siyosatshunos Jozef Nayning fikricha, mamlakat tili va madaniyati, xalqaro munosabatlarda asosiy rol o‘ynaydigan, jahon siyosati va biznes aloqalariga bevosita yoki bilvosita ta‘sir ko‘rsatuvchi siyosat bu “yumshoq kuch”dir. “Soft power” atamasi birinchi marta Garvard universiteti professori Jozef Nay tomonidan 1990-yilda chop etilgan “Bound to Lead: The Changing Nature of American Power” kitobida kiritilgan. Keyinchalik u ushbu konsepsiyani 2004 yilda "Soft power: Jahon siyosatida muvaffaqiyatga erishish vositalari" kitobida va "Yumshoq kuch va AQSh-Yevropa munosabatlari" maqolasida ishlab chiqdi. “soft power” atamasi o‘tmishda “madaniy-mafkuraviy gegemoniya” tushunchasini anglatgan, italyan faylasufi Antonio Gramsci tomonidan 1930-yillarda “Qamoqxonadaftarlari” ishlab chiqilgan. Shuningdek, G‘arbiy Yevropa va Amerika neokonservatorlari orasida keng tarqaldi. O‘z kuchini o‘rnatish maqsadida "soft power" dan foydalanish g‘oyasi miloddan avvalgi 7-asrda yashagan Lao Szi kabi

qadimgi Xitoy faylasuflariga borib taqaladi. Uning so'zlariga ko'ra: "Dunyoda suvdan zaif va yumshoqroq narsa yo'q, lekin u eng qattiq jismni ham yo'q qila oladi". "Soft power" nazariy konstruktsiya ekanligini aniqlab olish kerak. Bunday kuchni amalda tatbiq etish vositasi xalq diplomatiyasi deb ataladi. "Soft power" hozirgi global muvozanatni liderlar, diplomatlar va tashqi siyosatchilar uchun shoshilinch harakatga keltirish sifatida baholanadi. Shubhasiz, o'z davlatining tashqi siyosatini shakllantirishga mas'ul bo'lganlar kelajakdagi noaniq vaziyatlarga tayyor turishlari kerak. Mamlakatlar tez o'zgarib borayotgan kontekstni tushunish va shunga mos ravishda strategiyalarni o'zgartirishga harakat qilar ekan, hukumatlar ixtiyoridagi yumshoq kuch resurslari kelajakda zarur bo'lgan tashqi siyosat vositalarining muhim qismi bo'ladi. Ijobiy hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun yumshoq kuchdan foydalanishda eng mohir bo'lgan mamlakatlar hozirgi noaniqlik va geosiyosiy beqarorlik bilan kurashish va oxir-oqibat global voqealarni shakllantirish uchun yaxshiroq imkoniyatni qidira boshlashadi. Bu bir savolni yuzaga chiqaradi?: yumshoq quvvatni qanday qilib samarali qo'llash mumkin? Xalqaro munosabatlardagi kuch an'anaviy tarzda osonlikcha aniqlab bo'ladigan "qattiq" atamalar bilan belgilanadi, ko'pincha harbiy va iqtisodiy qudrat kontekstida namoyon bo'ladi. Hard power majburlash shaklida qo'llaniladi: kuch ishlatish, kuch bilan tahdid qilish, iqtisodiy sanksiyalar yoki to'lovlarni undirish. Hard powerning majburlovchi xususiyatidan farqli o'laroq, soft power tashqi siyosat maqsadlariga erishish uchun ijobiy jalb qilish va ishontirishdan foydalanishni o'z ichiga oladi. Soft power an'anaviy tashqi siyosat vositalaridan voz kechadi, buning o'rniga tarmoqlarni qurish, jozibali rivoyatlarni yetkazish, xalqaro qoidalarni o'rnatish va mamlakatini dunyo uchun tabiiy jozibador qiladigan resurslardan foydalanish orqali ta'sir o'tkazishga intiladi.

"Ba'zan siz o'zingiz xohlagan natijani aniq tahdidlarsiz yoki to'lovlarsiz olishingiz mumkin. O'zingiz xohlagan narsaga erishishning bilvosita yo'li ba'zan "hokimiyatning ikkinchi yuzi" deb ataladi. Mamlakat jahon siyosatida o'zi xohlagan natijalarga erisha oladi, chunki boshqa davlatlar – uning qadriyatlaridan o'rnak olib, farovonlik va ochiqlik darajasiga intilishadi va unga ergashishni xohlaydilar. Shu ma'noda, kun tartibini belgilash va boshqalarni jahon siyosatiga ko'proq jalb qilish, harbiy kuch yoki iqtisodiy sanksiyalar bilan tahdid qilish orqali ularni o'zgartirishga majbur qilish ham muhimdir. "Soft power" boshqalarning afzalliklarini shakllantirish qobiliyatiga tayanadi. Katta tashkilotni faqat buyruqlar bilan boshqarish qiyin. Hamjamiyat ularga umumiy maqsadlarga erishishda yordam berishni xohlaydigan

do'stona va jozibali kuchning zamonaviy amaliyotlariga tayanadi".¹ Shuningdek, so'nggi yillarda, Xitoy o'z tili va madaniy ta'siri orqali Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlariga kirib bordi. Xususan, Taiwan mamlakati rasmiy ravishda xitoy tilidan foydalanadi, xuddi shunday vaziyatni Osiyoning bir qancha mamlakatlarida ham ko'rishimiz mumkin. Xitoy madaniyati sir emaski Koreya yarimorolida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bu yerda Huquq va qishloq xo'jaligi sohasida ham muhim ta'sirlarga ega. Qisqa qilib aytganda, mandarin-xitoy tili Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan, hali-hanuz bu tillarni ayrim mamlakatlar rasmiy ravishda qabul qilishgan. Xitoyning dunyodagi "soft power" siyosati qo'shni Markaziy Osiyoni ham chetlab o'tmagan. Xususan, tarixan shakllangan savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorliklar, ayniqsa, Buyuk Ipak yo'li tamadduni tomonlar o'rtasidagi mushtarak aloqalar uchun zamin hozirlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xitoyning global imidjini yaxshilashni maqsad qilgan Pekin 2000-yillarning boshida bir nechta "soft power" loyihalarini ishga tushirdi. Xitoyning Markaziy Osiyodagi, shuningdek, boshqa mintaqalardagi asosiy harakatlantiruvchi vositasi bu – *Konfutsiy institutlaridir*. Xitoy strategiyasiga ko'ra, Konfutsiy (an'anaviy Xitoy donolik ramzi) xorijda ko'plab insonlarni jalb qilish va butun dunyo bo'ylab tarqalishiga erishish uchun kata imkoniyatlarga ega.² Birgina 2000-yillarning boshida Markaziy Osiyodagi Konfutsiy institutlari talabalari soni 22 270 nafarga yetgan. Har bir Konfutsiy institutida talabalar Xitoy tilini, tarixini, Xitoyning ma'naviy va madaniy qadriyatlarini o'rganadilar. Konfutsiy institutlari va sinflarida xitoy tilini o'rgatish, Markaziy Osiyo mamlakatlarida Xitoyning "soft power"i va Xitoy haqidagi tasavvurlarni yaxshi tomonga o'zgartirish uchun samarali vosita bo'lishi kutilgan edi. Pekin Konfutsiy instituti orqali, madaniyat va tilni yoyishga, Xitoyning jozibadorligini kuchaytirishga va sovet davrida shakllangan xurofot, dushmanlik, tahdid singari tushunchalarni yo'q qilishga intiladi.

2019-yilda dunyo bo'ylab 158 mamlakatda 535 Konfutsiy institutlari va 1134 Konfutsiy sinflari bor edi. Xitoy ta'lim vazirligiga qarashli davlat ta'lim muassasi bo'lgan Xanban/Konfutsiy institute shtab-kvartirasi ma'lumotlariga ko'ra, Markaziy Osiyoda 13 ta Konfutsiy institute, jumladan, Qozog'istonda 5 ta, Qirg'izistonda 4 ta, O'zbekistonda 2 ta va Tojikistonda 2 ta Konfutsiy institutlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu esa so'nggi 20 yillikda Xitoyning Markaziy Osiyodagi "soft power" siyosatida muhim o'rin egallaydi va Konfutsiy institutlari XXR ortiqcha bosimsiz, hech qanday

¹ Joseph S.Nye Soft power The means to success in world politics - 2004

² China's soft power in Central Asia <https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13599>

qattiq kuchdan foydalanmagan holda o'zining madaniyatini yoyishga intiladi. Xitoyning Qozog'istondagi "soft power" ta'siriga bag'ishlangan Sinopsis hisobotiga ko'ra, Pekin, madaniy-gumanitar tadbirlar, jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari vakillari uchun ma'lumotlar yoyishga harakat qiladi va *Xitoy an'anaviy tibbiyoti* bilan arzon davolanishni taklif qiladi. Iqtisodiy globallashuv, siyosiy ko'p qutblanish va madaniy diversifikatsiya bilan ajralib turadigan bugungi dunyoda Xitoy iqtisodiy yuksalish orqali global obro'ga ko'tarilishda asosiy madaniy kuch sifatida o'z ahamiyatini tiklab bormoqda. Shu maqsadda davlat tomonidan *madaniy diplomatiya* kampaniyasi uyushtirildi. Ushbu atama shuni ko'rsatadiki, madaniy diplomatiya ham "madaniyat" va "diplomatiya" o'lchovlarini o'z ichiga oladi va bu strategiya Xitoyda har ikki jabhada o'zgarishlarni namoyish etadi. 2001 yilda 10-besh yillik rejada "Global bo'lish" milliy strategiyasi kiritilgandan so'ng, madaniyat jabhasi 2002 yilda o'zining "global bo'lish" strategiyasini e'lon qildi ya'ni "yangi brend yaratish" missiyasi. Xitoyning yangi qiyofasini yaratish va Xitoyni xalqaro madaniyat markaziga aylantirish, o'sha paytdagi Madaniyat vaziri Sun Jiazhenning so'zlariga ko'ra, "asosiy xalqaro hamjamiyat va asosiy ommaviy axborot vositalariga kirib borish" orqali erishilishi kutilgan edi. Keyin 2004 yilda madaniyat Xitoy diplomatiyasining siyosat va iqtisoddan keyingi uchinchi ustuniga aylandi. Hukumatning ritorikasi tezda turli yuqori darajadagi tashabbuslarga katta sarmoya kiritilishi va bir qator muhim voqealar bilan uyg'unlashdi: 2003 yilda Fransiya, Italiya, Rossiya va Avstraliyada Xitoy madaniyati yili, 2004 yildan boshlab butun dunyo bo'ylab Konfutsiy institutlari (CI) ochilishigacha; keyin 2010 yilda xorijda 24 soatlik kabel kanallari va gazetalarini (China Daily Asia Weekly va European Weekly) ishga tushirishdan tortib, 2011 yilda Nyu-York Taym Squareda Xitoy imidj reklamasini namoyish qilishgacha. Diplomatik jabhada, shuningdek, 2013-yilda Szi Szingpinning tashqi ishlar konferensiyasidagi nutqida rasman yangi strategiya sifatida taqdim etilgan Den Syaopin davridagi "quyi profilni saqlash" pozitsiyasidan "maqsadlarga intilish" gacha bo'lgan o'zgarishlarni e'lon qildi. Xitoyning iqtisodiy islohotiga turtki bo'lgan Denning ochiq eshiklar siyosati "Katta sakrash" sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, uning davrida diplomatik jabhada bu siyosat to'liq qo'llanilmagan edi. "Madaniyat" va "diplomatiya" ning ikkala o'lchovida bir vaqtning o'zida sodir bo'layotgan o'zgarishlar Xitoyning o'ziga xosligidagi o'zgarishlarni va uning global madaniy o'ziga xosligini qayta shakllantirishga intilishini aks ettiradi.

Jorj Vashington universiteti professori David Shambo, Xitoyda uchta asosiy tafakkur maktabini aniqlagan.³

³ On the Belt & Road to failure? The challenges of China's soft power policy in

Birinchi, “madaniyat sifatidagi qadriyatlar” bo’lib, unga ko’ra tinchlik va totuvlik, axloq yoki ko’ngillilik kabi qadriyatlar, Xitoyning ommaviy madaniyatga qo’shgan asosiy hissasini tashkil qilishi kerak. Biroq, bu maktab ichida qizg’in bahs-munozaralar mavjud bo’lib, ular doirasida ba’zilar, bu tor yondashuvni juda eksklusive deb tanqid qilib, uni Xitoy tizimining boshqa iqtisodiy va kengroq madaniy-tarixiy elementlari bilan birlashtirish kerakligini ta’kidlaydilar. Ikkinchi maktab, Xitoy siyosiy tizimini “soft power”dan foydalanish namunasi sifatida ko’rish, uni eng harakatchan va qonuniy deb ko’rsatish kerak, deb hisoblaydi, shunda u boshqa xalqlar uchun jozibador bo’ladi. Nihoyat, uchinchi maktab, xalqaro model sifatida Xitoyning iqtisodiy rivojlanishiga qaratilgan. Garchi hukumat xalqaro yig’ilishlarda har bir davlatning rivojlanish yo’li o’zining milliy sharoitiga xos bo’lishi kerakligini ta’kidlagan bo’lsada, bu fikr maktabi Xitoyning iqtisodiy rivojlanish tajribasidan, “soft power”ning muhim vositasi sifatida foydalanish kerak degan g’oyani ilgari suradi.

Ikkinchidan, Xitoy “soft power”ining barcha o’lchovlari, xoh madaniy, siyosiy, iqtisodiy bo’lsin, deyarli faqat siyosiy hokimiyatlar yoki ular tomonidan qattiq nazorat qilinadigan tuzilmalar tomonidan ishlab chiqilgan.

U xorij mintaqalarida odamlarning qalbi va ongini qozonishda qiyinchilikka uchramaydi. David Shamboning kitobi va Pew tadqiqot markazi tomonidan o’tkazilgan so’rovlar shuni anglatadiki, Xitoy “soft power”ining global miqyosda, jumladan, Pekin o’z rivojlanish modelini sarmoya qilishda hech qanday kuchini ayamagan Afrika yoki Janubiy Amerika qit’alarida o’z ta’sirini ko’rsatdi. Xitoy strategiyasining samaradorligi, uning iqtisodiy tizimni barqaror qilish va uni mavaffaqiyat tarixi sifatida ilgari surish qobiliyatiga tayanadi.

Pekin Markaziy Osiyoda madaniy vositalardan foydalangan holda “soft power”ga ko’p qirrali yondashuvni qo’llab-quvvatladi, shu bilan birga o’zining siyosiy-iqtisodiy modelini tinch rivojlanish yo’li va sotsializmning Xitoy xususiyatlari bilan uyg’unligi sifatida ilgari sura oldi. U mahalliy aholining ko’pchiligi orasida hozirgacha noma’lum bo’lib kelgan Xitoy madaniyatini targ’ib qilishga intildi; iqtisodiy rivojlanish modelini ilgari surdi va mintaqaviy rivojlanishga o’zining beqiyos hissasini qo’shish orqali, o’zidan kelib chiqadigan iqtisodiy xafvlarini kamaytirishga harakat qildi. Xitoy shuningdek, 1990-yillarda boshlangan yaxshi qo’shnihilik munosabatlarini, 2000-yillarda Osiyo qadriyatlariga mos kelmaydigan deb talqin qilingan G’arb qadriyatlarini ta’siriga qarshi turish uchun to’liq strategic ittifoq darajasiga ko’tardi.

Zaif jihatlari: Bu turli tashabbuslar, Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari elitalari hamda jamoatchilik orasida obro'sini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin bo'lsada, uning "soft power" ga bo'lgan yondashuvlari, Rossiya va G'arb bilan solishtirganda muhim kamchiliklarga ega. Qozog'istonlik ekspert Gauxar Nurshaning fikricha, Xitoy madaniyati va ta'lim tizimi Markaziy Osiyolik yoshlar uchun jozibador bo'lsada, boshqa tomondan talabalarning hafsalasi pir bo'lishi ham mumkin: "Ular til va madaniyatni bilish, ishga joylashishda iqtisodiy ustunlik beradi",-deb o'ylashadi. Ammo, xitoy tilini o'rganishdagi qiyinchiliklar, unga talab katta bo'lgan ish o'rinlarining nisbatan kamligi va *ingliz tilining* hali hanuz kuchli mavqeyi, Xitoy ta'sirini kutilganidan kamroq samara berishga undaydi. Bundan tashqari, til to'sig'i Xitoy ommaviy axborot vositalaridan axborot manbai sifatida foydalanishni cheklaydi. Bu borada Rossiya o'zining gegemonlik rolini saqlab qoladi. Xitoy o'zining ijobiy tomonlarini ko'rsatish maqsadida bir qancha medialoyhalarini amalga oshirgan va mahalliy jurnalistlar uchun mediadasturlar uyushtirgan bo'lsada, ularning mintaqadagi ta'siri, *Rossiya* yoki *G'arb* media loyihalarning ta'siriga yaqinlashmaydi. "Soft power" tashabbuslarining potensial imkoniyatlari Xitoy mo'ljallab turgan mamlakatlarda cheklangan. Bu cheklanish, aholi orasida tarqalish va qamrab olish darajasi bilan bog'liq. Masalan, Toshkentda bir qancha *ko'rgazmalar* bo'lib o'tgan bo'lsada, ular aholining kichik bir qismini qamrab oladi. Aholini qamrab olish uchun til o'rganish orqali "soft power" kuchayib bormoqda, ammo turizm va biznes sohalarida hamon davlat tillari, *rus va ingliz tillaridan* orqada qolmoqda. Qozog'istonning Olmaota shahridagi Konfutsiy institute, chet tili maktablarida ko'p tarqalgan ingliz tili bilan solishtirganda, mandarin tilini o'rganish mumkin bo'lgan kam sonli joylardan biri bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari, ushbu modelning qiyofasi zaifroq ko'rinishi mumkin, chunki raqobatbardosh iqtisodiy modellarning jahon bozorida, Markaziy Osiyo mamlakatlari boshqa modellarga, xususan, Singapur yoki Janubiy Koreya kabi Osiyo modellariga jalb qilingan. Boshqa tomondan, Xitoyning xalqaro maydonda o'zining iqtisodiy qudratini namoyish etishi, kambag'al yoki kam rivojlangan mamlakatlarni qo'llab-quvvatlovchi rivojlangan davlat sifatida tasvirlash borasidagi talqinga tobora qarama-qarshi bo'lib bormoqda.

Imkoniyatlar: 2019-yilning 17-18 oktabr kunlari, Guansi provinsiyasi Nanning shahrida 7-Xitoy – Markaziy Osiyo hamkorlik forumi bo'lib o'tdi. *Forumning maqsadi*, Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashdan iborat edi. Xitoy, shuningdek, ikki davlat ekspertlari muntazam ravishda o'tkazib kelayotgan ikki tomonlama *uchrashuvlar va forumlar* orqali,

qozog'istonlik va xitoylik ekspertlar o'rtasidagi hamkorlikka ko'maklashmoqda. Xitoy Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan ham shunday hamkorlik shakllarini yo'lga qo'ygan. Xitoy tilini o'rganish, Markaziy Osiyo yoshlari orasida tobora ommalashib bormoqda va bu kasb imkoniyatlari, shuningdek, mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirish vositasi sifatida qaralmoqda. Xitoy tili, Markaziy Osiyoda ingliz tilidan keyin ikkinchi eng ko'p o'rganiladigan chet tiliga aylanmoqda. Bundan tashqari, Xitoy Markaziy Osiyolik talabalar uchun *stipendiya dasturlarini* ochgan. Xitoy ta'lim vazirligi ma'lumotlariga ko'ra⁴, 2018-yilda Xitoydagi 1004 ta oliy o'quv yurtlarida 196 ta davlatdan jami 492 185 nafar xalqaro talaba tahsil olgan. Qozog'iston o'zining 11 784 nafar talabasi bilan ro'yhatda o'ninchi o'rinni egallagan, xuddi shunga o'xshash, qolgan talabalarning ko'pchiligi Markaziy Osiyoning boshqa davlatlaridan kelgan.

Szi Szinpin tomonidan Qozog'istonda 2013-yili "*Bir makon, Bir yo'l*" tashabbusining e'lon qilinishi, mintaqada Xitoy "soft power"ining zarur rivojlanishiga olib keldi.⁵ Ushbu loyihaning maqsadi, iqtisodiy investitsiyalar bilan bir qatorda siyosiy xafvsizlikni ta'minlashdir. "Bir makon, Bir yo'l" loyihasi, iqtisodiy investitsiyalar va diplomatic tashabbuslarni o'z ichiga oladi, ularning ikkisi ham loyihalashtirilgan yo'nalishlar bo'ylab, ishchi hamkorlik va iqtisodiy koridorlarni rivojlantiradi. Tashabbus, shuningdek, oldingi *dasturlar va investitsiyalarni* ushbu doiraga kiritdi. Mintaqadagi *Xitoy sarmoyasi*, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarni yaxshilashi mumkin bo'lgan asosiy infratuzilmani rivojlantirishga imkon beradi. Diplomatik va hamkorlik tashabbuslari ko'rgazmalar, talabalarni jalb qilish va mashhur Konfutsiy institutlari shaklida bo'ladi. Bularning barchasi, o'zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun talabalar, ishbilarmonlar va asosiy amaldorlarni madaniy aloqalarga jalb qilishdan iborat.

Tahlikalar. Sankt-Peterburg davlat universiteti professorlari Yahyo Vatanyar Saidovich va Li Minfuning fikricha, Pekin har bir davlat suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan ko'p sivilizatsiyaviy munosabatlar va do'stona aloqalarni rivojlantirishda o'zaro sheriklik asosida, o'zining madaniy ekspansiyasiga qarshi reaksiyalarga yo'l qo'ymaslik uchun, Markaziy Osiyoda o'zining madaniy va sivilizatsiyaviy mavjudligi, gegemonlik ko'rinishi sifatida qabul qilinmasligiga erishmoqda. Biroq, mahalliy universitetlar tarkibida faoliyat yurituvchi Xitoy Konfutsiy institutlari, sezilarli manyovr erkinligini ta'minlaydi. Boshqa xorijiy

⁴ moe.gov.cn - It is headquartered in Xicheng, Beijing.
Ministry of Education of the People's Republic of China.

⁵ Assessing the Development of Chinese soft power in Central Asia

nodavlat notijorat tashkilotlari hisobot berishlari va mahalliy institutlar tomonidan nazorat qilinishi kerak bo'lsada, amalda, bu institutlar mustaqil faoliyat yuritadi.

Xitoy "soft power" harakatlari salbiy tomonlardan xoli emas. Bir tomondan, investitsiyalarning yuqori darajasi salbiy qabul qilinishi mumkin. Xitoy tomonidan tez-tez muhokama qilinadigan *qarz tuzog'i diplomatiyasi* va bunday loyihalar uchun *xitoy ishchi kuchlarining* jalb qilinganidan tashqari, bu investitsiyalar jamoatchilikning yomon tasavvurini uyg'otadi.

Xitoy universitetlarida grantlar, stipendiyalar va turli xil shunga o'xshash jalb etish dasturlari orqali Markaziy Osiyolik talabalar sonining ortib borishi, "soft power" taktikasi bo'lishi mumkin. Hozirda nisbatan samarasiz bo'lsada, Konfutsiy institutlari til o'rgatish imkoniyatlarini va madaniy aloqalarni yanada rivojlantirishga intiladi. Xitoy ko'rgazmalari, ehtimol, davom etadi, ammo shunga o'xshash aholi bilan muammolar, ularning samaradorligini cheklaydi. Garchi turli xildagi qiyinchiliklarga duch kelayotgan bo'lsa ham, Xitoyning bu harakatlari oxir-oqibat muvaffaqiyatli bo'lishi kutiladi, chunki yangi avlodlar, xususan, elitalar, Xitoyning "soft power" tashabbuslari, universitetlar orqali tobora ko'proq ta'sirga ega.

Shu bilan birgalikda, Pekin "Xitoy haqidagi xabarlarini dunyoga yaxshiroq yetkazish, boshqacha qilib aytganda, Pekin o'z oldiga Joseph Nay ta'kidlaganidek, "o'z chegarasidan tashqaridagi insonlarning qalbi va ongini zabt etishni", maqsad qilib qo'ygan. Shunga qaramay, Xitoyning "soft power" ga nisbatan avtoritar yondashuvi siyosiy hokimiyatni o'z konsepsiyasi, vositalari va amalga oshirilishini monopoliyaga olishga undadi. Joseph Nayning "soft power" tushunchasi Xitoyda ko'plab mulohazalar va munozaralarga sabab bo'ldi. Xitoy tashqi siyosatida "soft power"dan foydalanishning ahamiyati haqidagi consensus, uni qanday amalga oshirish kerakligi yoki boshqacha qilib aytganda, G'arbning ushbu asl konsepsiyasi, Xitoyning siyosiy yondashuvi va maqsadlariga qanchalik mos kelishi haqidagi tafovutlar bilan to'qnash keldi.

XULOSA

Xitoy xalq diplomatiyasini "soft power"ga aylantirish va uning barqaror bo'lishi mumkinligi, Pekinning hozirgacha Markaziy Osiyo borasida rejalariga to'sqinlik qilayotgan ko'plab unsurlarni hisobga olishiga bog'liq bo'ladi. Hozirgacha Xitoyning mintaqadagi asosiy yutug'i, uning iqtisodiy qudratini namoyish etish, shuningdek, avtoritarizm va markazlashuvni jadal rivojlanish, barqarorlik tayanchi sifatida ko'rsatish qobiliyatidir. "Soft power" siyosatini chinakam samarali bo'lishi uchun, Pekin o'ziga xos bo'lgan taraflarini ko'rsatishdan nariga o'tishi va uning tizimida nima universal bo'lishi mumkinligini ishonchli tarzda namoyish qilishi, xorijda Xitoy

modellari, konsepsiyalarini qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilishga tayyor multiplikatorlarni yaratishi kerak. Albatta, bu Markaziy Osiyo aholisi orasida hayratdan ko'ra ko'proq xavotir uyg'onishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, Xitoy Markaziy Osiyo bilan anchadan beri, an'anaviy ravishda yaqin munosabatlarga ega. Buning asosiy sabablari, ehtimol, ularning ijtimoiy, madaniy va demografik aloqalari, shuningdek, geografik yaqinligi, Xitoyga Markaziy Osiyo mintaqasida, dunyoning boshqa mintaqalaridan farqli maqomni ta'minlaganligidir. Bu rishtalar Xitoydan boshlanib, Markaziy Osiyo va Eron orqali Yevropaga o'tgan qadimgi Ipak yo'li orqali ham mustahkamlangan. Madaniy aloqalar, xususan, Xitoyning mintaqada "soft power" vositalarini kengaytirishga urinishi, Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi aloqalarning muhim jihati bo'ldi. Bu ayniqsa, so'nggi o'n yillikda e'tiborni tortdi va turli shakllarda namoyon bo'ldi. Xitoyning "soft power" tashabbuslari, uning sarmoyasi bilan bir qatorda, munosabatlarni osonlashtirish uchun kalit vazifasini bajarmoqda. Bundan tashqari, Xitoyning Markaziy Osiyo hukumatlari va ma'muriyatidagi tarafdorlari, pragmatizmdan ko'ra, ishonchga ko'proq sinofildirlar. Markaziy Osiyoning barcha hukumatlari, Xitoy bilan yaxshi munosabatlarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashda iqtisodiy, siyosiy, xafvsizlik, bir qator hollarda shaxsiy moliyaviy manfaatlarga ham ega. Janubi-Sharqiy Osiyodagi siyosiy partiyalarni moliyalashtirish, Xitoy tinchlik korpusini Laos, Efiopiya yoki Birmaga yuborish va Tailandning boshlang'ich maktablarida mandarin tilidan foydalanishni rag'batlantirish kabi "soft power" tashabbuslarining ba'zilar, dunyoning boshqa qismlarida ham qabul qilingan.

REFERENCES

1. Divergent options: National security analysis, options without advocacy and podcasts – (2020)
2. Вестник Российского университета дружбы народов серия: международные отношения (2015) ISSN 2313-0660
3. Shabnam Dadparvar, Homidrizo Aziziy – Confucian influence – The place of Soft Power in China's Strategy Towards Central Asia (2019)
4. Ponars Eurasia – Muvaffaqiyatsizlik sari: Xitoyning Markaziy Osiyo va undan tashqaridagi mintaqalarda "soft power" siyosatining muammolari (2019) by Sebastien Peyrouse
5. Yevropa va Xalqaro munosabatlar tarixi, Sorbonna universiteti – INSEAD (business school) – Xitoy-Yevropa-Rossiya munosabatlari va XXI asrdagi "soft power" (Asian Kaleidoscope)

-
6. Paul Goble – “Eurasia Daily monitor” 15-son – Xitoyning Markaziy Osiyodagi “soft power” siyosati ko’ringanidan kamroq va ko’proq.
 7. Nurlan Aliyev (CACI analyst) – China’s soft power in Central Asia (2019)
 8. Ванг, Журавлева – Восточная Азия: возвышение КНР – Шандуньский Университет
 9. International security, society and culture, economy: region of Central Asia – Columns Asian Kaleidoscope
 10. RIAC: Power – China’s outsearch to Central Asia – russiancouncil.ru
 11. Soft Power in Central Asia: The politics of influence and Seduction – ISBN: 9781793650771 – rowman.com